

AYRIM BOTANIK TERMINLARNING ETIMOLOGIK ASOSLARI

Sultonova Kibriyoxon Faxriddin qizi
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada botanikaga oid terminlarning tadqiqi sohalarga oid muhim ma’lumotlarni yaratishga xizmat qilishi haqida yoritilgan. Ijtimoiy gumanitar va amaliy fanlarga oid atamalarning leksikografik xususiyatini yoritish orqali botanik terminlarning etimologik va genetik xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: botanik, termin, sheva, paradigma, leksema, maydon nazariyasi, sistemalashtirish, iyerarxiya, lingvokulturologik xususiyat.

ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА НЕКОТОРЫХ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация: В этой статье показано, как изучение ботанических терминов может дать важную отраслевую информацию. Этимологическая и генетическая характеристика ботанических терминов определяется путем выяснения лексикографических особенностей терминов, относящихся к общественным, гуманитарным и прикладным наукам.

Ключевые слова: ботаник, термин, диалект, парадигма, лексема, теория поля, систематизация, иерархия, лингвокультурная особенность.

ETYMOLOGICAL BASIS OF SOME BOTANICAL TERMS

Abstract: This article highlights how the study of botanical terms can generate important field-specific information. Etymological and genetic characteristics of botanical terms are determined by elucidating the lexicographic features of terms related to social, humanitarian and applied sciences.

Key words: botanist, term, dialect, paradigm, lexeme, field theory, systematization, hierarchy, linguistic and cultural feature.

Har bir lug‘at o‘z sohasi va qo‘llanish doirasiga ko‘ra maxsus vazifalarni bajaradi. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘z qamroviga nutqiy faol, kundalik faoliyatimizda tez-tez murojaat qiladigan so‘zlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shu boisdan barcha lug‘atlar yaratishga qo‘yilgan talablar, yo‘riqnoma va dasturlar tuzilib, shu asosida izohli, ensklopedik, maxsus lug‘atlar yaratiladi. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni yaratishda A.Hojiyev tomonidan taklif etilgan yo‘riqnomada “izohli lug‘atga “ko‘pchilik qo‘llaydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko‘p qo‘llanadigan terminlar” kiritilishi alohida ta’kidlangan” [5]. Bundan tashqari izohli lug‘at mualliflarining izohiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, haqiqatdan ham, lug‘at keng mavzularni qamrab olganligi bilan qimmatli sanaladi. Xususan, “Lug‘at hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng iste’molda bo‘lgan 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevada qo‘llanadigan so‘zlarni, ba’zi tarixiy va eskirgan atamalarni o‘z ichiga oladi.

Lugʻatda berilgan soʻzlarning amalda qoʻllanishi XX asr oʻzbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Lugʻat oʻzbek tilshunosligi va turkiyshunoslik boʻyicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy taʼlim muassasalarining oʻqituvchilari va talabalari, shuningdek, keng oʻquvchilar ommasi uchun moʻljallangan” [4]. Ushbu izohdagi “fan” soʻhalariga oid terminlarning berilishida ham oʻziga xos lingvistik ahamiyatga ega. Ayniqsa, aniq fanlar sohasiga oid tushunchalar haqida batafsil izohlarning berilishi, aniq taʼriflarning shakllanishi, izohlarning illyustrativ misollarga mos ekanligini taʼminlash, keng auditoriyaga moslangan izohlarning berilishi, darslik va ilmiy-ommabop asarlarda fanga oid terminlarni izohlashda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻatida” botanika faniga oid terminlarning berilishida ayrim xususiyatlar inobatga olingan.

Har bir soha leksikasining mukammal izohli, ensklopedik, elektron va izohsiz lugʻatlari tartiblanayotganda ayrim talab va yoʻriqnomalarga asoslanadi. “Terminologik lugʻat faqat bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi (masalan, botanika terminlari lugʻati) yoki bilimning turli xil, odatda yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin (masalan, politexnik terminlar lugʻati). Shu bilan birga, terminologik lugʻat bir tilli boʻlishi (bir tildagi muayyan soha terminologiyasi jamlanib, uning izohi ayni shu tilda beriladi) yoki ikki, uch va koʻp tilli boʻlishi (bir tilning terminlari boshqa til yoki boshqa tillar terminlari bilan izohlanadi) ham mumkin” [1]. Shu maʼnoda bugungi kunda botanika terminlariga oid terminlar sistemasi, ularga oid leksemalarning til xususiyati, terminlik “maqom”iga egalik masalasi hamda uning tilimizdagi oʻz qatlamlarining variantlarini oʻrganish masalasi bugungi kunning dolzar tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Hozirgacha A.Qosimov va M.Nabiyevlar tomonidan “Botanikadan qisqacha izohli lugʻati” [4]. yaratilgan boʻlib, unda fanga oid oʻsimliklarning turlari, navlari, tarqalish hududlari, bir va koʻp yilligi, xalq xoʻjaligidagi ahamiyati, tabobatdagi ahamiyati haqida maʼlumotlar aks ettirilgan. Ushbu maʼlumotlar terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini bevosita yoritishga emas, botanika faninig xususiyatlaridan kelib chiqib izohlanadi. Toʻgʻri, ushbu lugʻatda botanikaga oid terminlarning qaysi tildan kirib kelganligi hamda ularning qisqacha etimologik xususiyati aks ettirilgan. Biroq ushbu maʼlumotlar botanika oid leksemalarning leksik xususiyatlarini batafsil aks ettiradigan lugʻat vazifasini bajarishga moʻljallanmagan. Ana shu maqsadda botanika oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini batafsil aks ettirish, sohaga oid soʻzlarning leksikografik xususiyatlarini yoritish va uning leksik sistemasini aks ettiradigan ommabop izohli lugʻatlar yaratishga xizmat qiladigan, unga lingvistik baza yaratishga asos boʻladigan tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj paydo boʻlmoqda. Bu esa oʻzbek leksikografiyasida ham xuddi shunday muammolarni bartaraf qilishda zamonaviy yondashuvlarni taqozo etadi. Xususan, yoʻnalishlarning turli xususiyatlarini aks ettiradigan tadqiqotlar amalda oshirilmoqda, xususan, “Oʻzbek tilshunosligida sohaga oid terminologiyaning leksikografik xususiyatlariga bagʻishlangan qator tadqiqotlar mavjud. XX asrning 80-90- yillaridan boshlab oʻzbek tilshunosligida terminologiyani sistema sifatida tadqiq etishga alohida eʼtibor berila boshladi.

M.Narziyeva, H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, G.Ne'matova, Sh.Iskandarova kabilarning ishlarida [3]. sohaga oid tushunchalarni tizimlashtirish, maydon nazariyasi asosida sistemalashtirish, sistemani tashkil etuvchi guruhlar iyerarxiyasini aniqlash masalasi lug'atlar yaratish uchun muhim tizimdir. Avvalo, hozirga qadar yaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'zbek tilidagi sohaviy terminlarning ayrim qirralarini izohiga bag'ishlangan.

Ijtimoiy gumanitar va amaliy fanlarga oid so'zlarning leksikografik xususiyatini yoritish, aniq fanlar, xususan, taqdiqotimiz obyekti bo'lgan botanika faniga oid so'zlarning quyidagi xususiyatlarini yoritish davr talabi hisoblanadi:

- botanika faniga oid so'zlarning etimologik asoslarini aniqlash;
- botanika faniga oid so'zlarning genetik xususiyatlarini tekshirish;
- botanika faniga oid so'zlarning sistemasini shakllantirish;
- botanika faniga oid so'zlarning sistema tarkibidagi paradigmalarni aniqlash;
- botanika faniga oid so'zlarning paradigmani shakllantiruvchi atama va terminlarning semantik xususiyatlarini yoritish;
- botanika faniga oid so'zlarning paradigmani shakllantiruvchi atama va terminlarning sintaktik xususiyatlarini izohlash;
- botanika faniga oid so'zlarning paradigmani shakllantiruvchi atama va terminlarning lingvokulturologik xususiyatlarini aks ettirish;
- botanika faniga oid so'zlarning paradigmani shakllantiruvchi atama va terminlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish;
- mazkur sohaga oid so'z va birikmalarning shakl va ma'no munosabatini aniqlash;
- botanika faniga oid so'zlarning shevaga oid variantlarini aniqlash;
- sohadagi chetdan o'zlashgan so'z va birikmalarning milliy variantini aniqlab, ularni tartiblashtirish imkoniyatlari aniqlash kabi masalalar haqida ilmiy izlanishlar olib borish davr talabi hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida botanikaga oid terminlarning izohlanishi, shakl va mazmun tomoni, termin hamda birikmalarning izohini aks ettirishning amaliy ahamiyati bugungi kun uchun muhim hisoblanadi. Botanika faniga oid so'zlarning etimologik asoslarini aniqlashda bir nechta adabiyotlarga asoslanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Birinchidan, o'zbek tilshunosligida yaratilgan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga asoslarga holda ish tutish masalasi muhim. Sababi botanikaga oid terminlarning turkiy qatlamga oid birliklari izohi inobatga olinadi. Biroq bu yetarli emas, chunki lug'at birligimizdagi botanik terminlarning barchasi ham turkiy qatlamga oid emas. Shu boisdan biz ilmiy tadqiqimizda mavzu ko'lamini hisobga olib nutqimizda faol bo'lgan adabiy va shevaga oid botanik terminlarga asosiy e'tiborni qaratamiz. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da mazkur sohaga oid leksemalarning ayrim izohlariga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, botanikaga oid terminlarning shevaga oid variantlari, ekologik tanazzul orqali yo'qolib borayotgan o'simlik nomlarining izohi, tasnifi va etimologik ta'rifi kelajak uchun muhim. Tog'ri, ba'zi terminlarning ilmiy tildagi nomlanishi va shevada uchraydigan ma'nosi turlicha bo'lishi tabiiy. Ana shu nomlarning

semantik a'loqasi va leksikografik xususiyatlarini aniqlash har bir soha tadqiqotchisidan izlanishni talab etadi. Masalan, Bujun leksemasi "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da quyidagicha izohlangan. "Bujun – "qarag'ayning bir turi". *Kattakon bujun ostidagi qizil darvozadan chiqqan mo'ysafid*(A.Qahhor) Bu ot qadimgi turkiy tildagi burish ma'nosini anglatgan bo' fe'lidan (o'n qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik z undoshi j portlovchi undoshiga almashgan; o'zbek tilidagi o' unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan. Bo'z+o'n= bo'zo'n -bo'jo'n -bujun. Devonda bujun keltirilib, "har xil o't o'simligi" ma'nosini anglatishi aytilgan [6]. Bu ta'rifdan turli xulosalarni chiqarish mumkin. Birinchidan, mazkur leksemaning ta'rifiga asoslanib botanikaga oid ekanligini anglash mumkin. Ikkinchidan, mazkur atama asl turkiy so'z ekanligi mazkur lug'at orqali isbotlanadi. Uchinchidan, ushbu leksema yaqin davrgacha nutqimizda qo'llanganligi va bugungi kunda ayrim hududlarda qo'llanishini illyustrativ misollardan anglash mumkin. Bundan tashqari bu leksema tarixiy asarlarda ham fonetik o'zgarishda qo'llangani misollar orqali dalillangan. Keltirilgan illyustrativ misol orqali mazkur o'simlikning baland va buralib o'sishini anglash mumkin.

Bundan tashqari, ushbu o'simlik qadimda ham mavjudligi va hozirda uning saqlanib qolganligi, fonetik o'zgarishga uchrab bugungi kun lug'at tarkibida mavjud ekanligi kabi ma'lumotlarni bera oladi. Bu ma'lumotlar, tabiiyki, o'quvchi ko'z o'ngida o'simlik dunyosi va uning turlari haqida tasavvur ug'otadi. Shu boisdan botanik terminlarning tabiiy fanlardagi ta'rifi, lug'atlarda berilishi va tasnifi tilshunoslikka oid lug'atlardagi izohi va ta'rifidan farq qiladi. Shu sababdan mazkur yo'nalishda botanik terminlarning tadqiqi bugungi kun uchun qimmatli. Shu bilan bir qatorda etimologik lug'atlarda mazkur o'simlikning turlari haqida ham ma'lumotlar saqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Madvaliyev. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.–B.30/.
2. A.Qosimov va M.Nabiyev. Botanikadan qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 80 b.
3. K.Fatullayeva. O'zbek tilshunosligida sohaga oid terminologiyaning leksikografik xususiyatlari. / "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konferensiya. – B.18.
4. O'zbek tilining ko'p jildili izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma. – Toshkent, 2000. – B. 6.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmalari. J I. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 4.
6. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3 jild. – B. 64.